



UZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

REPUBLIC OF UZBEKISTAN MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION

100011, Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 2a-uy Tel.: (+998) 71 241-01-86; (+998) 55 503-74-00
web-site: www.uzedu.uz, e-mail: uzedu@exat.uz

2026-yil 18-may

04-37-1627-son

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligiga

Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalariga

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan 2025-2026-o'quv yili yakuni munosabati bilan "Yuksak ma'rifatli avlod — Uchinchi Renessans poydevori!" shiori ostida "So'nggi qo'ng'iroq" tadbirlarini tashkil etish belgilangan.

"So'nggi qo'ng'iroq" tadbirlarini tashkil etishda **quyidagilarga e'tibor qaratish so'raladi:**

"So'nggi qo'ng'iroq" tadbirlarini (keyingi o'rinlarda – tadbirlar) o'tkazish bo'yicha ilovaga muvofiq tegishli tavsiya va namunaviy ssenariylarni barcha umumiy o'rta ta'lim maktablariga (keyingi o'rinlarda – maktablar) yetkazilishini ta'minlash;

so'nggi yillarda mamlakatimizda **o'quvchilarga yaratilayotgan sharoitlar va ular tomonidan qo'lga kiritilayotgan yutuqlarni bitiruvchilarga** sodda qilib yetkazish;

tadbirlarda **namunali xulqli va a'lo baholarga o'qigan** iqtidorli o'quvchilarni rag'batlantirish, o'quvchilarning ota-onalariga **"Eng faol ota", "Jonkuyar ona", "Mas'uliyatli ota-ona"** kabi nominatsiyalar bo'yicha **"Minnatdorchilik xat"**larini topshirish;

tadbirlarni xavfsizlik qoidalariga rioya qilgan holda **maktab hovlisidagi soya-salqin va ochiq maydonlarda** tashkil etish;

o'quvchilar tomonidan **avtotransport vositalarini boshqarish holatlarini** oldini olish;

tadbirni **joriy yilning 25-may kuni ertalab soat 8:00 dan 9:00 ga qadar tashkil etish** choralarini ko'rish.

Shu bilan birga, joriy yil 25-30-may kunlari barcha hududlarda **"Xayr bog'chasalom maktab!"** shiori ostida maktabgacha ta'lim tashkilotlari bitiruvchilari uchun bog'chalarda tantanali bayram tadbirlari o'tkaziladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, amalga oshirilgan ishlar va tadbir yakunlari yuzasidan ma'lumotlarni joriy yil **25-may kuni soat 17.00 ga** qadar vazirlikning Ta'lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni muvofiqlashtirish boshqarmasiga taqdim etishingiz so'raladi.

Ilova__varaqda.

Vazir o'rinbosari



F.Boqiyev

“SO‘NGGI QO‘NG‘IROQ” BAYRAM TADBIRINING TANTANALI QISMI UCHUN

NAMUNAVIY SSENARIY (1 SOAT)

(Tadbir ishtirokchilari O.Nazarbekovning “Uyg‘on o‘g‘lim”, J.Poziljonovning “Jadidlar” musiqa sadolari ostida davraga kirib keladi.)

1-boshlovchi:

Baxtga narvon bilimga kon erur maktab,
Zakovat doniga xirmon erur maktab,
O‘g‘il-qizlar, o‘qing ulkan murod ko‘zlab,
Ziyo topmoq uchun imkon erur maktab.
O‘qing minglab ahli dono kerak yurtga
Yana Bobur, Ibn Sino kerak yurtga.

2-boshlovchi:

Ma‘rifatsiz elat maqsadda jam bo‘lmas,
Ma‘rifatli o‘lka yotga qaram bo‘lmas,
Agar maktab quyosh ersa, ilm nurdir,
Fikrsiz bosh ichra hattoki sham bo‘lmas,
O‘qing, fikri yorug‘ avlod kerak yurtga
Va ertangi taraqqiyot kerak yurtga.

1-boshlovchi: Assalomu alaykum, aziz yurtdoshlar, hurmatli mehmonlar!

2-boshlovchi: Assalomu alaykum qadrli ustozlar, aziz yoshlar!

1-boshlovchi: Bugun mamlakatimizdagi barcha umumta‘lim maktablarida so‘nggi qo‘ng‘iroq sadolari yangraydi. Bu kun bilimga chanqoq, beg‘ubor orzular qanotidagi yoshlar va mehridaryo ustozlar, farzandi kamolini ko‘rib quvonayotgan ota-onalar uchun chin ma‘noda bayram.

2-boshlovchi: Shunday ekan, keling ayni damda bugungi tantananing asosiy ishtirokchilarini davramiz markaziga taklif etamiz.

(Musiqa sadolari ostida bitiruvchilar kirib kelishadi)

1-boshlovchi:

Assalom, ona yurt, tonglar o'lkasi,
Ta'rif-tavsifingni yo'q nihoyasi.
Senga bag'ishlanur muqaddas qo'shiq
Bu – o'zbek elining o'z madhiyasi.

*(O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi yangraydi. Barcha bayram
ishtirokchilari Davlat madhiyasini jo'r bo'lib kuylashadi)*

1-boshlovchi: bugungi kunda mamlakatimizda hurmatli Prezidentimiz tashabbuslari bilan ta'lim sifatini oshirish, yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini kengaytirish va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo'yicha muhim islohotlar va amaliy ishlar olib borilmoqda.

Ayni shu ishlar natijasida maktablarimiz yangi qiyofa kasb etib, bitiruvchilarning jamiyat hayotida munosib o'rin egallashlari uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda.

2-boshlovchi: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tabrigini o'qib eshittirish uchun *(maktabga tashrif buyurgan mehmon)* _____ ga so'z navbatini beramiz.

1-boshlovchi

Iymon qayda edi, ustoz bo'lmasa,
Urfon qayda edi, ustoz bo'lmasa.
Sohibqiron qayda, Navoiy qayda,
Cho'lpon qayda edi, ustoz bo'lmasa!

2-boshlovchi

Muallim atalgan, buyuk atalgan,
Ardoqlangan mudom, suyuk atalgan,
Olti asr avval ko'kka qadalgan,
Narvon qayda edi, ustoz bo'lmasa!

1-boshlovchi: Xabaringiz bor, hozirda barcha maktablarimizda “Iqtidor” maktab ansambli faoliyat yuritmoqda.

2-boshlovchi: Juda to‘g‘ri ta‘kidladingiz, yoshlarimiz o‘z salohiyati va istedodlarini namoyon etishlari uchun ushbu loyiha zo‘r imkon bo‘ldi. Hozir maktabimizda tashkil etilgan “Iqtidor” ansambliga navbat beramiz.

1-boshlovchi: Ayni damda, 2025-2026 o‘quv yilida fan olimpiadalari, ko‘rik tanlovlarda va sport musobaqalarida ishtirok etib, faxrli o‘rinlarni egallagan hamda o‘zining namunali xulqi bilan tengdoshlariga o‘rnak bo‘lgan o‘quvchilar, shuningdek, jonkuyar, ijodkor o‘qituvchilar maktab ma‘muriyatining faxriy yorliqlari bilan taqdirlanadi.

(direktor va mehmonlar tomonidan o‘quvchi va o‘qituvchilar taqdirlanadi)

2-boshlovchi: Aziz bitiruvchilar! Bugungi samimiy tilaklar, go‘zal raqslar, dilrabo kuy va qo‘shiqlar barchasi sizlarga atalgan. Shunday ekan, jajji kichkintoy singillarimizning tabrigini qabul qiling!

(boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining chiqishlari)

1-boshlovchi: Bugun juda ajoyib kun, to‘g‘rimi! Qarang, ustozlar ham, o‘quvchilarning ham yuraklari shodlik va hayajonga to‘lgan. Bolalikning eng quvnoq, unutilmas, totli damlarini birga o‘tkazgan sinfdoshlar bugun uchirma qush bo‘lib, parvozga shay holda turibdi.

2-boshlovchi: Qunt ila qirq hunar olmoqqa shahd aylang,
Shamoldan ham shakar olmoqqa shahd aylang.
Zamondan-da yurib ilg‘or, bo‘lib koshif,
Har ilmdan samar olmoqqa shahd aylang.
O‘qing qudrat ila shuhrat kerak yurtga!
Ma‘rifatga tashna millat kerak yurtga!

1-boshlovchi: Azizlar, keling navbatni bitiruvchilarimizga bersak. Marhamat!

(sahnaga bitiruvchi o‘quvchilar chiqib o‘zlarining dil izhorlarini aytishadi va o‘zlari tayyorlagan kuy va raqslarni namoyish etishadi)

1-boshlovchi: Dunyoda ota-ona uchun farzandining **baxtu kamolini** ko‘rishdan ortiq quvonch bo‘lmasa kerak. Hozir ana shunday tuyg‘ularni his qilayotgan ota-onalarni davramiz markaziga chorlaymiz, marhamat!

Ota-onalarga so‘z beriladi.

(Maktab hayotida faol ishtirok etayotgan, shuningdek, odob-axloqi, intiluvchanligi bilan tengdoshlariga o‘rnak bo‘layotgan o‘quvchilarning ota-onalarini “Eng faol ota”, “Jonkuyar ona”, “Mas’uliyatli ota-ona” kabi nominatsiyalari bo‘yicha tashakkurnomalar beriladi)

Yakuniy qism

1-boshlovchi: Va nihoyat hayajonli daqiqalar. So‘nggi qo‘ng‘iroq sadolari ostida bitiruvchilarimizni kuzatib qo‘yamiz.

2-boshlovchi: Shodliklarim cheksiz biroq, ayriliqdir og‘irroq,

Yuraklarga larza solar, hayhot so‘nggi qo‘ng‘iroq.

Ey chalguvchi, qo‘ng‘iroqni chalaqolgin jo‘shqinroq,

Qayda bo‘lsak esda bo‘lsin har on so‘nggi qo‘ng‘iroq.

(So‘nggi qo‘ng‘iroqni chalish uchun 11-sinf o‘quvchisi va 1-sinf o‘quvchisi taklif etiladi)

Qo‘ng‘iroq chalinganidan so‘ng, biruvchilar “So‘nggi qo‘ng‘iroq” qo‘shig‘i sadolari ostida davraga chiqadilar.

Shu bilan “So‘nggi qo‘ng‘iroq” tadbiriga yakun yasaladi.

(Izoh: Mazkur namunaviy ssenariyga belgilangan vaqtga amal qilgan holda ijodiy yondashuv asosida o‘zgartirish kiritish mumkin)